

QO'SHMA GAPLARNING SEMANTIK-SINTAKTIK TAHLILI

Muattarxon Xrojiddinova,*Qo'qon davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
assistant o'qituvchisi***Mehmonova Mubinaxon Muxtorjon qizi,***O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932126>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo'shma gaplarning semantik-sintaktik xususiyatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi qo'shma gap tarkibidagi predikativ birliklar o'rtasidagi mazmuniy munosabatlarni aniqlash hamda ularning grammatik ifodalanish vositalarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ularning bog'lovchi vositalar, intonatsiya va sintaktik qurilish orqali ifodalanish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, semantik va sintaktik omillarning o'zaro integratsiyasi qo'shma gapning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini belgilovchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari qo'shma gaplar tipologiyasini aniqlashtirish hamda ularning matn tarkibidagi funksional ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan qo'shma gaplar, bog'lovchisiz qo'shma gaplar, murakkab qo'shma gaplar.

Аннотация. В данной статье семантико-синтаксические особенности сложных предложений анализируются на основе системного подхода. Цель исследования заключается в выявлении смысловых отношений между предикативными единицами в составе сложного предложения и научном обосновании средств их грамматического выражения. Освещаются особенности их реализации посредством союзных средств, интонации и синтаксической структуры. Кроме того, интеграция семантических и синтаксических факторов рассматривается как важный показатель, определяющий коммуникативно-прагматический потенциал сложного предложения. Результаты исследования способствуют уточнению типологии сложных предложений и определению их функциональной значимости в структуре текста.

Ключевые слова: сочинённые сложные предложения, подчинённые сложные предложения, бессоюзные сложные предложения, сложное предложение.

Annotation. In this article, the semantic-syntactic features of complex sentences are analyzed on the basis of a systematic approach. The aim of the study is to identify the semantic relations between predicative units within complex sentences and to provide a scientific justification of the grammatical means of their expression. The features of their realization through conjunctive devices, intonation, and syntactic structure are elucidated. Furthermore, the integration of semantic and syntactic factors is interpreted as an important element determining the communicative-pragmatic potential of complex sentences. The results of the research contribute to clarifying the typology of complex sentences and defining their functional significance within the structure of the text.

Key words: coordinated compound sentences, subordinated compound sentences, asyndetic compound sentences, complex sentence.

Kirish. Qo'shma gaplar tilning muhim sintaktik birliklaridan biri bo'lib, ular orqali murakkab fikrlar ifodalanadi. Inson nutqida voqealar, hodisalar va fikrlar o'rtasidagi turli munosabatlar — sabab, shart, payt, qarama-qarshilik, natija kabi bog'lanishlar — aynan qo'shma gaplar yordamida ifodalanadi. Shuning uchun qo'shma gaplarni o'rganish tilshunoslikda muhim o'rin tutadi.

Qo'shma gaplar nafaqat tuzilishi (sintaktik tomoni), balki ma'nosi (semantik tomoni) jihatidan ham murakkabdir. Ba'zi tadqiqotlarda ularning tuzilishiga ko'proq e'tibor berilgan bo'lsa, boshqalarida mazmuniy munosabatlar o'rganilgan. Biroq qo'shma gaplarni shakl va ma'no birligida, ya'ni sintaktik-semantik jihatdan birgalikda tahlil qilish masalasi doimo ham yetarli darajada yoritilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi — o'zbek tilidagi qo'shma gaplarni sintaktik va semantik jihatdan birgalikda tahlil qilish hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida qo'shma gaplarning turlari ko'rib chiqiladi, ularning tuzilishi va ifodalagan ma'nolari o'zaro solishtiriladi hamda umumiy xulosalar chiqariladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqot qo'shma gaplarning shakl va mazmun o'rtasidagi bog'liqligini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularni o'qitish hamda amaliy tahlil qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Bog'langan qo'shma gaplar turlari va ishlatilish ahamiyati Ikki va undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan hamda ohang tugalligiga ega butunlik qo'shma gaplar sanaladi. Har qanday sodda gap o'zaro bog'lanib qo'shma gapni hosil qilavermaydi. Faqat o'zaro mazmuniy muvofiq bo'lgan gaplarga bir - biri bilan bog'lanib qo'shma gapni tashkil etadi. Masalan: Qor yog'di va gullar ochildi deb bo'lmaydi, chunki bu gaplar bir biri bilan mazmunan muvofiq kelmaydi.

Muhokama va natijalar. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar alohida qo'llangan sodda gaplar bilan teng emas. Alohida qo'llangan sodda gaplar grammatik, mazmun, va ohang tugalligiga ega bo'ladi, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar esa bunday xususiyatga ega emas. Ularning har biri garchi gapning asosiy belgisini o'zida namoyon etsa ham, grammatik, mazmun, ohang tugalligiga qo'shma gapning oxirida namoyon bo'ladi. Shuning uchun qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida- alohida gaplar emas, balki bir umumiy gapning qismlari sanaladi. Bir qismning ohangi ikkinchi qismni talab qiladi. Masalan: Suv keldi - nur keldi.

Qo'shma gaplar qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi.

- 1 Bog'langan qo'shma gaplar
- 2 Ergashgan qo'shma gaplar
- 3 Bog'lovchsiz qo'shma gaplar

Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlari - u -(yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan gaplar bog'langan qo'shma gaplar hisoblanadi. Bog'langan qo'shma gaplar - a) biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar, b) zidlov bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gaplar, c) ayiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gaplar, d) bo'lsa, esa, so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar va e) inkor bog'lovchisi orqali bog'langan qo'shma gaplarga bo'linadi.

a) Biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gaplar va, hamda - sof biriktiruv bog'lovchilari, -u, - (yu), -da - vazifadosh biriktiruv bog'lovchilari. Biriktiruv bog'lovchisi qo'shma gapning payt va sbab- natija munosabatlarida bo'lgan qismlarni bog'lab keladi. Bog'langan qo'shma gaplarda payt munosabati deganda sodda gaplarda ifodalangan voqea - hodisaning bir paytda yoki ketma - ket bajarilgani tushuniladi.

Qismlari o'rtasida sabab - natija munosabati ifodalangan qo'shma gaplar ikkinchi qism oldidan natija so'zini qo'yish mumkin. M: Anor so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir - dir qaltirar. - Anor so'zlar (va) natijada Zaynab qalbi Tol bargiday dir - dir qaltirar.

b) Zidlov bog'lovchilari bog'langan qo'shma gaplar qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi. Ammo, lekin, biroq - sof zidlov bog'lovchilari. -u, -yu, -da - vazifadosh zidlov bog'lovchilari.

Sof zidlov bog'lovchilari gapning ikkinchi qismi boshida qo'llanadi va qo'shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi. -u, -yu, -da bog'lovchilaridan oldin chiziqcha, keyin vergul qo'yiladi. -u, -yu, -da yuklamalari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlash, ketma - ketlik munosabati mavjudligini bildiradi. M: Dilimizda orzu balandroq edi, lekin ko'klam biroz noqulay keldi.

c) Yakka va takror holda qo'llanadigan ayiruv bog'lovchilari - yo, yoki, yoxud, yoinki. Qo'shma gap qismlarida faqat bittasining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Faqat takror holda qo'llanadigan ayiruv bog'lovchilari goh..., goh; dam... dam; bir... bir; ba'zan... ba'zan; Qo'shma gap qismlarida ifodalangan voqe - hodisaning galma - gal ro'y berishini ifodalaydi. M: Yo siz keling, yo men boray.

d) Bo'lsa, esa so'zlari qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasidagi ular o'rtasidagi qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. Bo'lsa , esa so'zlari qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng keladi. Qiyoslash munosabati M: Aql ko'pga yetkazadi, hunar bo'lsa insonni ko'kka yetkazadi. Zidlash munosabati M: Rostgo'ylik odamni kamolotga yetkazadi, yolg'onchilik esa uni halokatga olib boradi.

e) Inkori bog'lovchisi bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ularda ifodalangan harakat - holat yoki belgining inkorini ham bildiradi. Shuning uchun bunday bog'langan qo'shma gaplar kesimlari bo'lishli shakldagi mavjud fe'llar yoki bor, mavjud so'zlar orqali ifodalansa-da, mazmun inkori tarzda anglashiladi. Yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. M: Bu vaqt davomida u na yemabdi va na ichmabdi.

2 Ergashgan gaplar va ularning ishlatilish ahamiyati

Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplar ergashtiruvchi qo'shma gaplar hisoblanadi. Ergashgan qo'shma gaaplar, tarkibida nechta gap bo'lishidan qat'iy nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi: 1) bosh gap, 2) ergash gap.

Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog‘lanadi: Ergashtiruvchi bog‘lovchilar M: Bu yil cho‘llarda o‘t mo‘l, chunki yomg‘ir ko‘p yog‘di. Ko‘makchili qurilmalar M: Sinfimizda hamma bir jon-u bir tan, shuning uchun bizda urushqoqlar yo‘q. Yuklamalar -(ki) M: Shuni bilinki, bitta so‘zning tig‘i yuzta sham - shirdan o‘tkirroq. Nisbiy so‘zlar M: Talabalar qancha o‘qisa, ular shuncha maqtovga loyiqdir. Deb so‘zi yordamida M: Yovlar yakson bo‘lsin deb, askarlar jang boshladi.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar qatnashgan gap har doim ergash gap hisoblanadi, ergashtiruvchi bog‘lovchilar har doim hol ergash gapni hosil qiladi.

a) Maqsad bog‘lovchisi (toki) bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadini bildiradi. Ergash gapning boshida keladi. Oldin bosh gap keyin ergash gap keladi. Undan oldin vergul

qo‘yiladi. Hol ergash gapni hosil qiladi. M: Biz xonalar keng bo‘lsa deymiz, toki xastalar toza havoga muhtoj bo‘lishmasin.

b) Sabab bog‘lovchilari (chunki, negaki) bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiradi. Ergash gapning boshida keladi. Oldin bosh gap keyin ergash gap keladi. Undan oldin vergul qo‘yiladi. Hol ergash gapni hosil qiladi. M: Biz shu Vatanga sodiqmiz, chunki u bizning Ona vatanimiz.

c) Qiyoslash - chog‘ishtiruv bog‘lovchilari (go‘yo, go‘yoki, xuddi) Ergash gapning boshida keladi. Oldin bosh gap keyin ergash gap keladi. Hol ergash gapni hosil qiladi. M: Ko‘zlari yarim yumuq, go‘yo kattaroq ochishga majoli yo‘q.

d) Shart bog‘lovchilar (agar, agarda, basharti, mabodo) Ergash gapning boshida keladi. Oldin ergash gap keyin bosh gap keladi. Hech qanday tinish belgisi qo‘yilmaydi. Hol ergash gapni hosil qiladi. Agar bugun borsam kitobni olib boraman.

Ko‘makchili qurilmalar (shuning uchun, shu sababli, shu bois, shu tufayli) bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiruvchi ergash gapni hosil qiladi. Oldin ergash gap keyin bosh gap keladi. Hol ergash gapni hosil qiladi. M: Olim kishilar har yerda hurmatlidir, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo‘l.

Deb so‘zi qatnashgan gap har doim ergash gap hisoblanadi, deb so‘zi har doim hol ergash gapni hosil qiladi. Ergash gapning oxirida keladi. Oldin ergash gap, keyin bosh gap keladi. Undan oldin vergul qo‘yiladi. Xabar maylining o‘tgan zamon shaklidan keyin kelsa, sababni bildiradi. M: O‘toqlarim kelishdi deb, ko‘chaga chiqdim. Xabar maylining kelasi zamon shaklidan keyin kelsa, maqsadni bildiradi. M: Ukam o‘qiydi deb, kitob oldim. Buyruq maylining kelasi zamon shaklidan keyin kelsa, maqsadni bildiradi. M: Ukam o‘qisin deb, kitob oldim.

-sa shart mayli qatnashgan gap har doim ergash gap hisoblanadi, -sa shart mayli har doim hol ergash hol ergash gapni hosil qiladi. Ergash gapning oxirida keladi. Oldin ergash gap, keyin bosh gap keladi. Bosh gapda ifodalangan mazmunning paytini bildiradi. M: Dutor chalib o‘tirsam tori uzilib ketdi. Bosh gapda ifodalangan mazmunning shartini bildiradi. M: Qorako‘zni yana supurgi bilan ursang, unga kasov otsang, ukalaringnikiga

ketib qolaman. Bosh gap tarkibida ko'rsatish olmoshi qatnashib, ergash gap ana shu ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlashga xizmat qilsa, havola bo'lakli qo'shma gap deyiladi. -ki yuklamasi orqali hosil qilinadi M: Shuni bilginki, ko'p uxlash organizmga zarar. Nisbiy so'zlar yordamida hosil qilinadi M: Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi.

* Kesim ergash gapli qo'shma gap. Masalan: Baxtim shuki, seni uchratdim bu gapda bosh gap:

baxtim shuki. Bosh gap tarkibidagi shu ko'rsatish olmoshi kesim vazifasini bajargan, shuning uchun gap kesim ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

* Ega ergash gapli qo'shma gap . Masalan: Shunisi aniqki, u haqiqatni aytdi bu gapda bosh gap: shunisi aniqki. Bosh gap tarkibidagi shunisi ko'rsatish olmoshi ega vazifasini bajargan, shuning uchun gap ega ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

* To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. Masalan: Shunga ishonchim komilki, kim haqiqatni gapirasa o'sha mard bo'ladi. Bu gapda bosh: Shunga ishonchim komilki, bosh gap tarkibidagi shunga ko'rsatish olmoshi to'ldiruvchi vazifasini bajargan, shuning uchun gap to'ldiruchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

* Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap. Masalan: Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan bu gapda bosh gap: Shunday odamlar borki bosh gap tarkibidagi shunday ko'rsatish olmoshi otga bog'langani uchun aniqlovchi vazifasini bajargan, shuning uchun aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

* Hol ergash gapli qo'shma gap. Masalan: Shunday yashanki, hamma havas qilsin. Bu gapda bosh gap: Shunday yashanki, bosh gap tarkibidagi shunday koprsatish olmoshi fe'lga bog'langani uchun hol vazifasini bajargan shuning uchun gap hol ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

Ergash gap tarkibida qo'llanuvchi kim, nima, qancha, qanchalik, qanday, qayer, kabi so'roq olmoshlari va bosh gap tarkibida unga javob bo'lib keluvchi shu, o'sha, shuncha, shunchalik, shunday kabi olmoshlari bir - biriga nisbatan qo'llangani, biri ikkinchisini taqozo etgani uchun nisbiy so'zlar hisoblanadi. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'lar bilan ifodalanadi.

* Kesim ergash gapli qo'shma gap. Masalan: Kim zo'r o'qisa, yutuq o'shaniki bo'ladi. Bu gapda bosh gap: Yutuq o'shaniki bo'ladi bosh gap tarkibidagi o'shaniki bo'ladi koprsatish olmoshi kesim vazifasini bajargan, shuning uchun gap kesim ergash gapli qo'shma gap.

* Ega ergash gapli qo'shma gap. Kim qo'rqsa, u oldin musht ko'taradi. Bu gapda bosh gap: U oldin musht ko'taradi. Bosh gap tarkibidagi u ko'rsatish olmoshi ega vazifasini vajargan, shuning uchun gap ega ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

* To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. Kimki boshqalarga rahm - u shavqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi. Bu gapda bosh gap unga hech kim rahm - u shafqat qilmaydi.

Bosh gap tarkibidagi unga ko'rsatish olmoshi to'ldiruvchi vazifasini bajargan, shuning uchun gap

to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

* Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap. Har kim opz og'zining qorovuli bo'lsa uning nafasi hech qachon bo'g'ilmaydi. Bu gapda bosh gap : uning nafasi hech qachon bo'g'ilmaydi. Bu gap tarkibidagi uning ko'rsatish olmoshi otga bog'langani uchun aniqlovchi vazifasini bajargan,

shuning uchun gap aniqlovchi ergash gap bo'ladi.

* Hol ergash gapli qi'shma gap. Qayerda urush bo'lmasa, o'sha yerda baraka bo'ladi. Bu gapda

bosh gap : O'sha yerda baraka bo'ladi. Bosh gap tarkibidagi o'sha yerda ko'rsatish olmoshi fe'lga bog'lanib hol vazifasini bajargan, shuning uchun gap hol ergash gapli qo'shma gap bo'lgan.

Tarkibida ko'rsatish olmoshi mavjud bo'lgan ergashgan qo'shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma'nodosh bo'la oladi. Ergash gapni bosh gap tarkibidagi tegishli ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo'lagi o'rniga qo'yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin.

Ergashgan qo'shma gap

Shuni bilingki, kenga keng, torga tor dunyo kengligini bil.

Kim ko'p o'qisa ko'p biladi.

Yaxshi odatingiz shuki, barvaqt turasiz turishingizdir

Sodda gap

Dunyoning torga tor kengga

Ko'p o'qigan ko'p biladi

Yaxshi odatingiz barvaqt

3 Bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ularning qo'llanish usullari

Tarkibida sodda gaplar mazmunan bir - biri bilan bog'liq bo'lib maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar deb yuritiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari yozuvda ajratish uchun vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari ishlatiladi.

Vergul qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma - ket sodir bo'ladigan voqea - hodisalarni ifodalasa ular orasida vergul qo'yiladi. Masalan: Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar hovliga suv sepdilar.

Ikki nuqta qo'shma gap orasida izohlash munosabati ifodalanganda , ular orasiga ko'pincha ikki nuqta qo'yiladi. Bizning fikrimiz shu: Tadbirda hammamiz faol ishtirok etamiz.

Tire qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, zidlash, shart kabi munosabatlar ifodalanganda ular orasiga tire qo'yiladi. Masalan: Hamal keldi, amal keldi.

Nuqtali vergul qo'shma gap qismlari mazmunan yaqin bo'lmagan yoki ketma - ket sodir bo'ladigan voqealarni bildirgan va bir necha tinish belgilari qo'llangan hollarda

nuqtali vergul ishlatiladi. M: Umriniso xola bolalik chog'idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o'pdi, duo qildi; irim qilib o'zi kuzatgani chiqmadi.

Qo'shma gap qismlari teng bog'lovchilar yordamida ham, ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida ham bog'lanmasa, ular bir - biri bilan ohang yordamida bog'lanadi. Ana shunday qo'shma gaplar

ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar yoki bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar deyiladi.

4 Murakkab qo'shma gaplar va ularning ahamiyati

Turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi murakkab qo'shma gaplar deyiladi.

Murakkab qo'shma gaplar turlari: Bir necha ergash gapli, bir necha bosh gapli, aralash murakkab qo'shma gaplar, qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar.

Tarkibida ikki va undan ortiq ergash gaplar mavjud bo'lgan gaplar bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap sanaladi. M: Do'stlik rivojlansa, oqibatga ko'z tegmasa, barcha qalin bo'lsa bayramlar davom etaveradi.

Tarkibida ikki va undan ortiq bosh gaplar mavjud gaplar bir necha bosh gapli qo'shma gap sanaladi. M: Butun dunyoga ma'lumki, siz ham unutmangki, Orolni saqlab qolish barchamizning burchimizdir.

Tarkibida ergashgan, bog'langan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavjud bo'lsa, aralash murakkab qo'shma gaplar hisoblanadi. Masalan: Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan.

Bir turdagi uch va undan ortiq gaplardan tashkil topgan gaplar qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar deyiladi. M: Dam qushlar ovozi yangraydi, dam daryoning shovullashi eshitiladi, dam musiqa sadosi jaranglaydi.

So'zlovchi ba'zan o'z nutqida birovning gapini aynan keltiradi. Birovning aynan keltirgan gapi ko'chirma gap, so'zlovchining nutqi esa muallif gapi deyiladi. Muallif gapi va ko'chirma gapdan tashkil topgan qo'shma gap ko'chirma gapli qo'shma gap deyiladi. Masalan: Yigitlarning oldiga savol - javob qog'ozini surib qo'yarkan, kulib dedi: "Marhamat, tabarruk qo'llarini qo'ysinlar!"

Xulosa. Qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tahlili ularning ikki va undan ortiq predikativ birliklardan tashkil topgan murakkab sintaktik tuzilma ekanligini ko'rsatadi. Bunday gaplarda komponentlar o'rtasidagi bog'lanish nafaqat grammatik vositalar orqali, balki mazmuniy-mantiqiy munosabatlar asosida ham yuzaga keladi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, qo'shma gaplar orqali sabab-oqibat, shart, payt, zidlik, qiyoslash kabi turli semantik munosabatlar ifodalanadi hamda nutqning mantiqiy izchilligi va kommunikativ yaxlitligi ta'minlanadi. Shunday qilib, qo'shma gaplarning semantik-sintaktik xususiyatlarini o'rganish til tizimining strukturaviy va funksional imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tahlili ularning ko'p qatlamli tuzilishga ega ekanligini, shakliy va mazmuniy omillar o'zaro uyg'unlashgan holda kommunikativ butunlikni ta'minlashini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov, G'., Rustamov, A. (1982). O'zbek tili grammatikasi. Toshkent: Fan
2. Nurmonov, A. Sobirov (2024) Struktur tilshunoslik ildizlari va yo'nalishlari. Toshkent. O'zbekiston
3. O'zbek tilining nazariy grammatikasi: 1995, 2001-yillar. Toshkent.
4. Mahmudov, N., Nurmonov, A. (1995). O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent: Fan.
5. Nurmonov, A. (2001). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston
6. Nargiza Erkaboyeva. - (2021) O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Yosh kuch nashriyoti
7. Yo'ldoshev, B. (2010). O'zbek tilshunosligida pragmalingsvistika. Toshkent: Universitet.(Maqola)

